

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLO BANDLIGINI TA'MINLASHDAGI DOLZARB MASALALAR



Abdullahov Munis Kurbonovich  
TDIU "Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari"  
kafedrasini mudiri, PhD, dotsent  
*E-mail: [m.abdullahov@tsue.uz](mailto:m.abdullahov@tsue.uz)*

Begalova Durdona Baxodirovna  
TDIU talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida bandlik ko'rsatkichlari, hududlar kesimida bandlarning jinslar, rasmiy va norasmiy sektorlar, davlat va nodavlat sektorlar bo'yicha taqsimlanishi, ishsizlik darajasi va mehnat bilan band bo'lgan fuqarolar, iqtisodiy faol va bandlar to'g'risida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** aholi bandligi, davlat xizmatlari, ijtimoiy mehnat, rasmiy sektor, norasmiy sektor, band aholi.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются показатели занятости в Республике Узбекистан, распределение занятости по регионам по полу, формальному и неформальному секторам, государственному и частному секторам, уровню безработицы и количеству занятых граждан, экономически активных и занятых представлены аналитические данные.

**Ключевые слова:** трудоустройство, государственные услуги, социальная работа, формальный сектор, неформальный сектор, занятое население.

**Abstract.** This article deals with employment indicators in the Republic of Uzbekistan, the distribution of employment by region by gender, formal and informal sectors, public and private sectors, the unemployment rate and the number of employed citizens, economically active and employed analytical data are presented.

**Key words:** employment, government services, social work, formal sector, informal sector, employed population.

### Kirish

Mamlakatimizda har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda, shuningdek bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinaliga ishga joylashtirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta'sirchan chora tadbirlar olib borilmoqda.

O'z o'rnida, aholining ishchanlik faolligini va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishga, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari bandligini ta'minlashga, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan bir qator me'yoriy - huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Hozirgi kunda hududlardagi mehnat bozorida hali-hamon yuqori darajada keskinlik saqlanib qolmoqda, doimiy ish o'rinalini tashkil etish, yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini, ayniqsa, qishloq joylarda ta'minlash, shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish bo'yicha ayrim muammolar mavjud.

Ishga joylashtirish sohasida aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun kredit ajratish, maslahat-axborot berish xizmatlari va boshqa zarur xizmatlar darajasi pastligicha qolmoqda. Kadrlar ko'pincha iqtisodiyot tarmoqlarining joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini, ularning imkoniyatlari va resurslarini hisobga olmagan holda kasbga tayyorlanishi va qayta

tayyorlanishi natijasida mehnat bozorida ayrim mutaxassisliklar bo'yicha malakali kadrlar taqchilligi kuzatilmogda.

### Tahlil va natijalar


Bandlik - mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyatdir. Bandlik xodimni ijtimoiy mehnat taqsimatiga asoslangan aniq mehnat kooperatsiyasiga jalb etish bo'yicha shaxslararo munosabatlarni ifoda etadi. Bandlik turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda yollanib ishlash bilan cheklanmay, ayni paytda yakka tartibdagи tadbirkorlik, o'zini ish bilan mustaqil ta'minlash, shaxsiy tomorqa xo'jaligidagi ishslash, uy xo'jaligida band bo'lish va bolalarni parvarishlash bilan shug'ullanishni ham o'z ichiga oladi.

Bandlik - bu ikki tomon o'rtaqidagi munosabatlar, odatda ish haqi to'lanadigan shartnoma asosida bir tomon foya olish uchun, notiyorat tashkilot, kooperativ yoki boshqa tashkilot ish beruvchi, ikkinchisi esa xodimdir. Bandlik odatda mehnat sohasidagi me'yoriy-huquqiy xujjalarni asosida tartibga solinadi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilda Respublikamizda band ayollarning jami bandlardagi eng yuqori ulushi Toshkent shahri (46,7 %), Navoiy (45,6 %), Buxoro (45 %) va Farg'ona (44,2 %) viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, band erkaklarning eng yuqori ulushi Surxondaryo (65,1 %), Qashqadaryo (61,9 %), Samarkand (61,2%), Jizzax (60,4 %) va Sirdaryo (60,0 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelamoqda.

Aksincha, band ayollarning eng kam ulushi Surxondaryo (34,9 %), Qashqadaryo (38,1%), Samarkand (38,8%) va Jizzax (39,6%) viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, band erkaklarning eng kam ulushi Toshkent shahri (53,3 %), Navoiy (54,4%), Buxoro (55 %), va Farg'ona (55,8 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda (1-rasm).

Iqtisodiyotning rasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar soni Davlat statistika qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida aniqlanadi.



**1-rasm. Hududlar kesimida bandlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi**

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga asosan tuzilgan*

Iqtisodiyotning rasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovi bo'yicha korxona, muassasa va tashkilotlarning soliq hisobotlarida qayd etilgan shaxslar;

- yakka tartibdag'i tadbirdorlar, dehqon xo'jaligi a'zolari, qoramol o'stirish bilan band bo'lgan va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo'lganlar, hamda davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovini majburiy yoki ixtiyoriy ravishda amalga oshirayotgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda boshqa turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan band bo'lganlar.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlik mezonlariga quyidagilar kiradi:

-haftasiga kamida ikki soat iqtisodiyotning norasmiy sektorida haq to'lanadigan har qanday faoliyat turi bilan bandlik;

-bandlik muntazamligi - iqtisodiyotning norasmiy sektoridagi bandlikdan tushgan har haftalik daromadning mavjudligi;

-shaxsiy yordamchi xo'jaligini yuritish uchun foydalilaniladigan uy xo'jaligi boshqaruvidagi yer maydonining mavjudligi.

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rstmoadaki, rasmiy sektordagi band aholi soni 2019-yilda 2017- yilga nisbatan 8,5 % ga, 2015- yilga nisbatan 8,2 % ga oshgan. Norasmiy sektorda ishlovchilar esa 2019- yilda 2017- yilga nisbatan 5,2% ga kamaygan va 2015- yilga nisbatan 0,6 % ga oshgan. 2019- yilda rasmiy sektorda band bo'lgan aholining jami bandlardagi eng yuqori ulushi Toshkent shahri (81 % ), Navoiy (67 %), Toshkent (47,4 %) va Buxoro (46,9 %) viloyatlariga to'g'ri keldi. Norasmiy sektorda bandlarda esa eng yuqori ko'rsatkichlar Namangan ( 68,1%), Surxondaryo ( 67,8 %), Samarqand (66,8 %) va Qashqadaryo (64,4 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi (1-jadval).

#### 1-jadval

#### Hududlar kesimida bandlarning rasmiy va norasmiy sektorlar bo'yicha taqsimlanishi

	2015 y.		2017 y.		2019 y.	
	rasmiy	norasmiy	rasmiy	norasmiy	rasmiy	norasmiy
<i>O'zbekiston Respublikasi</i>	<b>40,5</b>	<b>59,5</b>	<b>39,1</b>	<b>60,9</b>	<b>42,3</b>	<b>57,7</b>
<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i>	42,0	58,0	42,5	57,5	41,2	58,8
viloyatlar:						
<i>Andijon</i>	33,2	66,8	31,2	68,8	36,3	63,7
<i>Buxoro</i>	38,9	61,1	41,3	58,7	46,9	53,1
<i>Jizzax</i>	42,0	58,0	37,5	62,5	37,6	62,4
<i>Qashqadaryo</i>	35,8	64,2	38,9	61,1	35,6	64,4
<i>Navoiy</i>	53,3	46,7	56,5	43,5	67,0	33,0
<i>Namangan</i>	32,9	67,1	29,7	70,3	31,9	68,1
<i>Samarqand</i>	34,4	65,6	32,2	67,8	33,2	66,8
<i>Surxondaryo</i>	40,6	59,4	32,2	67,8	32,2	67,8
<i>Sirdaryo</i>	52,8	47,2	45,4	54,6	46,8	53,2
<i>Toshkent</i>	37,9	62,1	38,8	61,2	47,4	52,6
<i>Farg'ona</i>	39,0	61,0	34,4	65,6	35,9	64,1
<i>Xorazm</i>	38,3	61,7	34,4	65,6	37,2	62,8
<i>Toshkent sh.</i>	64,9	35,1	69,2	30,8	81,0	19,0


*Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga asosan tuzilgan*

Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishni har tomonlama tahlil qilish, sifatli va xolisona baholash, ayniqsa mehnat bozoriga ilk bor kirib keluvchi mehnatga layoqatli yoshlar, aholi bandligini ta'minlash dasturi samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup>gi 2017- yil 24-maydagi PQ- 3001- son qarori qabul qilindi. Qaror bo'yicha quyidagi vazifalarni bajarish yo'lga qo'yilgan:

- Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansining prognoz parametrlariga muvofiq ta'lim muassasalarida kadrлarni kasbga tayyorlash yo'nalishlarini takomillashtirish va ularga tuzatishlar kiritish;

- Aholi bandligini ta'minlash, birinchi navbatda, mehnat bozoriga ilk bor kirib keluvchi mehnatga layoqatli yoshlarni ishga joylashtirish hududiy va tarmoq dasturlari ko'rsatkichlarini shakllantirishda mehnat resurslari, bandlik va aholini bandligini ta'minlash dasturi loyihasini har yili 1 oktabrgacha bo'lgan muddatda Vazirlar Mahkamasiga kiritish<sup>1</sup>.

Rasmiy ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki 2019- yilda bandlarning davlat sektoridagi jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Navoiy (38,5 %), Toshkent shahri (28,1 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (21,0 %), Sirdaryo (19,1 %) va Buxoro (18,0 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Nodavlat sektordagi eng yuqori ko'rsatkichlar Andijon (85,9 %), Namangan (85,1 %), Samarqand (85 %), Farg'ona (84 %) va Xorazm (83,5 %) viloyatlarida kuzatildi (2- rasm).



**2-rasm. Hududlar kesimida bandlarning davlat va nodavlat sektorlar bo'yicha taqsimlanish**

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga asosan tuzilgan*

Ishsizlik deganda bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga tushuniladi. O'zbekistonda ishsizlik tushunchasi rasman 1992-

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'r ganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida" Toshkent sh., 2017- yil 22- dekabr, 1011- son.

yilda "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonuning qabul qilinishi bilan me'yoriy kuchga ega bo'ldi (1998-yil 1-mayda ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi).

Ishsizlar - qonun hujjatlariga muvofiq rasman ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslar, shuningdek, haq to'lanadigan ishga yoki daromad keltiruvchi mashg'ulotga ega bo'limgan, mustaqil ravishda ish izlovchi va bunday ish taklif etilsa, ishga joylashishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli yoshdagi vaqtincha mehnat bilan band bo'limgan shaxslar<sup>2</sup>.

Ishsizlik inson manfaatlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ish joyini yo'qotish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining pasayishini, shaxsiy hayotining notinchligini keltirib chiqaradi, kishiga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaldagi iqtisodiy hayotda ishsizlik ishchi kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi tarzida namoyon bo'ladi. Ishsizlik sababi turlicha: texnika rivojlanish bilan mehnat unumdoorligi ortadi. Iqtisodiyotda jami talab va taklif muvozanati buziladi, tovarlarga bozor talabining qisqarishi ishchi kuchiga talabni ham qisqartirib yuboradi, natijada ishchi kuchining bir qismi ortiqcha bo'lib qoladi. Iqtisodiyot rivojlanishi bilan malakali ishchi kuchiga talab oshib, malakasizlar kerak bo'lmay qoladi; aholi ishchilarga nisbatan tez o'sgan kezlarda, uning bir qismi ortiqcha bo'lib, ishsiz qoladi.

Respublika davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ishsizlik darajasi 2019- yilda 2016- yilga nisbatan 3,8 % ga, 2017 yilga nisbatan 3,2 % ga o'sgan va 2018 yilga nisbatan 0,3 % ga kamaygan.

2019- yilda ishsizlik darajasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qashqadaryo (9,3%), Sirdaryo (9,3 %), Surxondaryo (9,3 %), Farg'ona (9,3 %) Samarqand (9,3 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkichlar esa Toshkent shahri (7,4%), Navoiy (8,5 %), Toshkent (8,9 %) va Buxoro (8,9 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda (2-jadval).

## 2-jadval

### Hududlar kesimida ishsizlik darajasi\* (%da)

	Yillar				
	2015	2016	2017	2018	2019
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>5,2</b>	<b>5,2</b>	<b>5,8</b>	<b>9,3</b>	<b>9,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:	5,3	5,4	6	9,5	9,1
Andijon	5,6	5,6	6	9,6	9,2
Buxoro	5,5	5,4	5,5	9	8,9
Jizzax	5,2	5,4	5	9,4	9,2
Qashqadaryo	5,5	5,3	6,1	9,7	9,3
Navoiy	5	5	5,2	8,7	8,5
Namangan	5,2	5,3	5,8	9,5	9,1
Samarqand	5,7	5,7	6,5	9,7	9,3
Surxondaryo	5,5	5,6	6,7	9,5	9,3
Sirdaryo	4,9	4,4	5,1	9,6	9,3
Toshkent	4,1	4,1	5,2	9	8,9
Farg'ona	5,4	5,5	6,4	9,7	9,3
Xorazm	5,4	5,5	5,7	9,5	9,1
Toshkent sh.	3,8	3,6	4,5	7,9	7,4

*Manba: Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga muvofiq*

Iqtisodiy faol aholi tarkibiga mehnat bilan band bo'lgan fuqarolar va ishsizlar kiradi.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 4- maydagi 13-son qaroriga ilova "Mehnat resurslarin hisobot balansini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"

Mehnat bilan band bo'lgan fuqarolar:

- yollanib ishlayotganlar, shu jumladan ishlarni to'liq bo'Imagan ish vaqtin mobaynida yoki uyda ish haqi olib bajarayotgan, shuningdek, haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar;
- kasallik, ta'til qayta tayyorgarlik, malaka oshirish, ishlab chiqarishning to'xtab turishi tufayli, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq vaqtinchalik ishda bo'Imagan xodim uchun saqlanib qoladigan boshqa holatlarda ish joyida vaqtinchalik bo'Imagan fuqarolar;
- haq to'ladigan lavozimiga saylangan yoki tayinlangan fuqarolar;
- o'zini mustaqil ravishda ish bilan ta'minlovchi fuqarolar, jumladan, Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar, hunarmadlar, dehqon xo'jaliklari, ishlab chiqarish kooperativlari a'zolari, fermerlar va qonunchilik nazarda tutilgan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchilar;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, jumladan, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati qo'shinlarida xizmatni, shuningdek, muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar va boshqalar;
- nodavlat notijorat tashkilotlarida, shu jumladan, o'z faoliyatini qonunchilikka muvofiq amalga oshirayotgan diniy tashkilotlarda ishlovchilar.

Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'Imagan aholi (ishsizlar) – qonun hujjatlariga muvofiq rasman ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslar, shuningdek haq to'lanadigan ishga yoki daromad keltiruvchi mashg'ulotga ega bo'Imagan, mustaqil ravishda ish izlovchi va bunday ish taklif etilsa, ishga joylashishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli yoshdagi vaqtincha mehnat bilan band bo'Imagan shaxslar;

Quyidagi jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, iqtisodiy faol aholi sonining jamiga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichlari Farg'ona (11,1%), Samarqand (10,8%), Andijon (9,5 %), Toshkent (9,1%) va Qashqadaryo (9,1%) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda (3-jadval).

### 3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi va bandlar soni

	<i>Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi</i>	<i>ulardan:</i>		<i>Aholining iqtisodiy faoliyk darajasi, foizda</i>	<i>Aholining bandlik darajasi, foizda</i>
		<i>bandlar</i>	<i>ishsizlar</i>		
<i>O'zbekiston Respublikasi</i>	<b>14876,4</b>	<b>13541,1</b>	<b>1335,3</b>	<b>75,0</b>	<b>68,3</b>
<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i>	782,2	711,3	70,9	69,2	63,0
<i>viloyatlar:</i>					
<i>Andijon</i>	1413,9	1284,5	129,4	77,2	70,2
<i>Buxoro</i>	875,4	797,1	78,3	76,2	69,3
<i>Jizzax</i>	590,3	536,2	54,1	74,0	67,2
<i>Qashqadaryo</i>	1345,3	1220	125,3	70,7	64,1
<i>Navoiy</i>	450,9	412,7	38,2	75,9	69,5
<i>Namangan</i>	1214,7	1104,6	110,1	73,2	66,5
<i>Samarqand</i>	1604,2	1455,8	148,4	72,1	65,4
<i>Surxondaryo</i>	1128,8	1024,2	104,6	74,0	67,2
<i>Sirdaryo</i>	385,9	350,1	35,8	76,1	69,0
<i>Toshkent</i>	1353,5	1232,9	120,6	78,5	71,5
<i>Farg'ona</i>	1644,8	1492,6	152,2	74,5	67,6
<i>Xorazm</i>	810,0	736,5	73,5	72,8	66,2
<i>Toshkent sh.</i>	1276,5	1182,6	93,9	86,9	80,5

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra eng past ko'rsatkichlarni esa Sirdaryo (2,6%), Navoiy (3,0%), Jizzax (4,0%) va Xorazm (5,4 %) viloyatlari tashkil etmoqda.

Statsitik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistondagi iqtisodiy o'sish barqaror ish o'rnlari va bandlik sonining ko'payishi bilan yonma- yon yurmagan. Shu jumladan yuqoridagi jadvallarda ayollar, erkaklar, rasmiy va norasmiy sektordagi bandlik, ishsizlik va iqtisodiy faoliyat darajasini o'rgandik. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar o'rtasida bandlik darajasi pastligi ayollarning iqtisodiy faolligining pastligi bilan bog'liq. Norasmiy sektorda bandlar rasmiy sektorda bandlarga qaraganda ancha yuqorini ko'rsatmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasining yuqori darajasi O'zbekistondagi mehnat bozoriga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori " Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida" Toshkent sh., 2017- yil 22- dekabr, 1011- son
2. "Ozbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida 2017- yil 24- maydagi PQ- 3001- son qarori.
3. "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo'yicha uslubiy Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 2018 yil 4 maydagi 13- sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'risida"gi qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi.
6. "Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari" /Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi /Toshkent, 2008
7. Yo.Abdullayev Statistika nazariyasi. Darslik-Toshkent "O'qituvchi" 2002
8. H.Shodiyev, I.Habibullayev Statistika. Darslik-Toshkent "Iqtisod-Moliya"2019.
9. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qo'llanma. - T.: Noshir, 2011.
10. Бедный М.С. Здоровье и продолжительность жизни.-М.: Знание,1990.
11. Вандескrik К. Демографический анализ. - М.: ИНФРА-М, 2005
12. [https:// www.stat.uz](https://www.stat.uz)- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
13. <https://population.un.org/wpp/Download/Standard/Interpolated/> - BMT ning Aholishunoslik bo'limi rasmiy sayti.